

## SHAHAR TURIZMI – SAYYOHLIKNING YANGI YO'NALISHI SIFATIDA

**Anarkulov S.M.**

*O'zMU, Antropologiya va etnologiya kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada turizmning dunyo davlatlari taraqqiyotidagi rolining ortib borayotganligi, turizmning shakllanayotgan yangi-yangi yo'nalishlari, xususan, "shahar turizmi", uning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti uchun ahamiyati, sohani rivojlantirishdagi dunyo tajribasi xususidagi mulohazalar o'rin olgan.*

**Kalit so'zlar:** *turizm, shahar turizmi, ISTAT, tarixiy shahar, marketing, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, sayyohlik, muzey, arxitektura, infratuzilma, ekzotika, transport.*

Turizm – bugungi kunda ko'pgina mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida sezilarli ulushga ega soha hisoblanadi. Uning iqtisodiy ahamiyati sayyohlik orqali mahalliy byudjetga kelib tushadigan mablag'lar bilan o'lchanadigan bo'lsa, ijtimoiy hayotdagi o'rni esa soha bilan bog'liq ko'plab xizmat ko'rsatish tizimlari, shuningdek, qo'shimcha ishchi o'rinlarining vujudga kelishida ko'zga tashlanadi. Birgina Yevropa Ittifoqiga kiruvchi mamlakatlardagi turizm sohasida faoliyat yuritayotgan ishchilarning avtomobil ishlab chiqarishga qaraganda deyarli besh baravar ko'p ekanligi ham buni tasdiqlaydi [1].

Shahar turizmi deyilganda, shaharning asosiy yo'nalishi va diqqatga sazovor joylari bilan bog'liq sayyohlik faoliyati tushinilib, aslida turizmning bu shakli nisbatan qadimdan shakllangan hisoblanadi. Ma'lumki, shaharlar har doim ko'plab sayohatchilarning maqsadi bo'lgan, bu jarayon XX asrning 50-yillardan tobora ommalashib borayotgan hodisaga aylandi. Tadqiqot obyekti sifatida shahar turizmi o'tgan asrning 80-yillarga qadar ham ommalashmagan va 90-yillarida esa nisbatan o'rganila boshlangan edi [2, 1-15]. XXI asrga kelganda bu boradagi tadqiqotlarning ko'lami ortib bordi. Albatta, buni mazkur sohaning jamiyat hayotiga chuqur kirib borganligi bilan izohlash mumkin. Chunki, shaharlar ichidagi turizmi yuksalishining bevosita texnologiya taraqqiyoti (shahar infratuzilmasi) bilan ham kuchli bog'langanligi, ko'pgina soha vakillarining ushbu masala bilan yaqindan, jiddiyroq shug'ullanishlarini taqozo qilar edi.

Turizmining shaharlar hayotiga chuqur singib ketganligini pandemiya davrida sayyohlar oqimining kamayishi bilan Barselona, Praga, Amsterdam va Rim kabi shaharlar iqtisodiyoti barqarorligiga jiddiy ta'siridan ham ko'rish mumkin. Italiyaning milliy statistika organi ISTAT ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat 2020-yilda 81 milliondan ortiq sayyohni yo'qotdi [3]. Bu holatni O'zbekistonning Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlarida ham kuzatish mumkin. Ya'ni, dunyodagi boshqa turistik shaharlar singari O'zbekistonning tarixiy shaharlariga tashrif buyuruvchilar soni keskin kamaydi.

Bugungi kunda dunyodagi shaharlar turizmi rivojlangan davlatlarda sayyohlar oqimining avvalgi holatini tiklash hamda uni yanada ko'paytirish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shahar turistik bozorida odamlar tomonidan talab qilinadigan obyektga aylangan turli xil mahsulot yoki xizmatlar taklif qilinmoqda. Ma'lumki, turistlar uchun

shahar taklif qiladigan mahsulot moddiy yoki nomoddiy har qanday narsa bo'lishi mumkin. Ya'ni ma'lum joy (muzey, madaniy, diniy, ko'ngilochar), xizmat ko'rsatish sohalari yoki shaharning o'ziga xos rivojlanishi (transport, qurilish, arxitektura) shular jumlasidandir. Shuningdek, jahon tajribasida turli festivallar, xalqaro va mahalliy sayyohlarni jalb qilish uchun tashkil etilgan madaniy tadbirlar kabi shahar turizmi mahsulotlarining ko'plab namunalari mavjud. Chunki madaniyat, ekzotika sayohatchilarni jalb qilishning eng muhim motivlaridan biridir [4, 35-47.].

So'nggi yillarda O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, mamlakatda shahar turizmining rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Samarqanddagi xalqaro turizm markazi ochilishiga bag'ishlangan tadbirda, kelgusida bunday majmualarning Buxoro shahrida ham qurilishi, bu kabi loyihalarni respublikaning barcha hududlarida amalga oshirish bo'yicha rejalar mavjudligini ta'kidladi [5]. Ushbu turizm markazi yiliga 2 million sayyohga xizmat ko'rsatadi. Uning tarkibida "Boqiy shahar" majmuasi, Kongress holl, 8 ta zamonaviy mehmonxona, amfiteatr va ko'plab boshqa obyektlar bor. Endilikda ushbu tajribani boshqa shaharlarda ham amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, shahar turizmining dinamik rivojlanishi jamiyatda bandlik va daromadlarning o'sishi, hayot sifatining oshishi, daromad manbalarining kengayishiga sabab bo'ladi. Ya'ni, shahar turizmi sayyohlarga ham, shaharlarga ham ko'plab afzalliklarni beradi. Jumladan, birinchi navbatda shahar infratuzilmasining yaxshilanishiga imkon beradi. Chunki, shahar turizmi ko'pincha shahar ichidagi infratuzilmaning yaxshilanishiga olib keladi. Masalan, yaxshi transport tizimlari, yaxshilangan jamoat joylari va yaxshi turar joy imkoniyatlari nafaqat sayyohlar uchun, balki, mahalliy aholi uchun ham foydali hisoblanadi. Shuningdek, shahar turizmi mahalliy iqtisodiyotga ko'proq pul olib keladi, bu esa ish imkoniyatlarini ko'paytirishga, davlat xizmatlarini yaxshilashga va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashga olib keladi. Qolaversa, shahar turizmi shahar madaniyati va tarixini qadrlashni oshirishi va uning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishni rag'batlantiradi. Xizmat ko'rsatish borasida turli restoranlar, chakana savdo do'konlari va ko'ngilochar joylar kabi mahalliy xizmatlarni yaxshilashga yordam beradi va shaharni sayyohlar uchun yanada jozibador joyga aylantiradi.

To'g'ri, sayyohlarning soni haqidagi raqamlar o'z navbatida kirib keluvchi mablag'larni ham anglatadi. Lekin, shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ommaviy turizm, ko'pincha shahar uchun aholi va iste'molning haddan tashqari ko'payishi, chiqindilarni yig'ishdan tortib suv, energiya iste'moli sarf-xarajatlari kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bu esa, shahar turizmi va shaharlarda barqarorlik tamoyillarining ahamiyatiga e'tiborni kuchaytiradi. Bu borada izlanishlar olib borgan C.Lowning fikriga ko'ra, to'rt omil shaharlarni turizmni rivojlantirishga undagan. Unga ko'ra: uzoq vaqtdan beri ishlab chiqilgan sanoat faoliyatining pasayishi, yangilarini tashkil etish zarurati; iqtisodiy faoliyat yoki ishsizlikning yuqori darajasi; turizmni o'sish sanoati sifatida qabul qilish; turizmning rivojlanishi shahar markazlarining tiklanishi va jonlanishiga olib keladi degan umid mazkur sohaning



rivojlanishiga sabab bo'lgan [6]. Bundan ko'rinadiki, shahar turizmining rivojlanishi jahon tajribasida jamiyat hayoti uchun, asosan, ijobiy hodisa sifatida baholangan.

Odatda, katta shaharlar umumiy turizm tizimida muhim funksiyalarni bajaradi. Masalan, ular xalqaro va mahalliy sayyohlar uchun asosiy "darvoza" bo'lib, havo transporti tizimining asosiy tugunlari sifatida, bir nechta yo'nalishlarga sayohat qilish uchun oraliq nuqta vazifasini bajaradi. Bu funksiyalarning aksariyati ko'pincha oddiy hol sifatida qabul qilinadi va natijada shaharlarda turizmni foydali va barqaror rivojlantirish talablari to'liq tushunilmaydi. O'zbekistonda bugungi kunda 11ta xalqaro aeroport faoliyat yuritib, ularning aksariyati yirik shaharlarda joylashgan. Bundan kelib chiqadiki, yuqorida ta'kidlanganidek, shaharlar turizm sohasining boshqa yo'nalishlarini rivojlanishida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinadiki, shaharda turizmni tushunishni boshlash uchun shaharshunoslik va uning nazariy tanqidlarini ham e'tiborga olish talab qilinadi. Bu boradagi ko'plab tadqiqotlar turizmning ham iqtisodiyotda, ham jamiyat hayotidagi muhim rolini e'tirof etadi.

2016-yil sentabr oyida "Mastercard" kompaniyasi dunyo bo'ylab eng ko'p tashrif buyuriladigan 132ta shaharni o'z ichiga olgan "Global Destination Cities Index"ni chiqardi [7]. 2019-yil yakunlari bo'yicha esa 167ta shahar va Bangkok, London va Parij kuchli uchlikka kirdi. Uning natijalaridan shuni ko'rish mumkinki, hozirda dunyoning eng rivojlangan davlatlari deya qayd qilingan mamlakatlar reytingning birinchi o'ntaligini egallagan. Bundan, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tobora muhim o'rin egallab borayotganini ko'rish mumkin.

Ayrim tadqiqotchilar turizm tizimini to'rtta o'zaro bog'liq qismdan – maqsad, marketing, talab va sayohatdan iborat deb ta'riflaydilar. Shuningdek, ular turizm tizimlari ochiq va tashqi muhit omillari ta'sirida ekanligini ta'kidlaydilar. Ular sayyohlar uchun uchun mo'ljallangan diqqatga sazovor joylar va tadbirlar, turli obyektlar, transport, infratuzilma, xizmat ko'rsatish sifatini o'z ichiga olgan mahsulotlarni shunday omillar sirasiga kiritadilar. Ushbu maqsadli mahsulotlardan tashqari, shaharlarda turizm siyosati va rejaları, tashkilotlar, qonunchilik ham muhim hisoblanadi. Marketing odamlarni shaharga tashrif buyurishga ishontirish uchun maqsadli bozorlar bilan aloqalarni o'z ichiga oladi va bu harakat ko'pincha tegishli tashkilotlar tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bunda joylashuv, imidj va branding muvaffaqiyatli marketing uchun juda muhim. Talab odamlarga sayohat qilish to'g'risida qaror qabul qilishda ta'sir ko'rsatadigan omillarni, shuningdek, ular qanday qilib bron qilish, sayohat qilish hamda sayohatlar haqidagi xotiralarini esga olishni o'z ichiga oladi. To'rtinchi tizim qismi sayohat, onlayn va oflayn sayohatlarni tarqatish kanallari va transport turlarini o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda, ma'lum hududning "turizm shahri" maqomini olishga harakat qilinadi. Shu o'rinda "turizm shahri o'zi nima?" degan savol tug'iladi. Bu savolga javob berish juda qiyin, chunki barcha shaharlar ma'lum darajadagi "o'z mehmonlariga" ega. Ta'kidlash joizki, turizm shaharlari – bu turizm muhim ahamiyatga ega bo'lgan va shahar hukumatlari ushbu iqtisodiy sohaga katta ustuvorlik beradigan joylardir. Bundan tashqari, shuni aytish mumkinki, ushbu shaharlar eng ko'p

sayyohlarni jalb qiladi. Ushbu mezonlardan foydalanib, Bankok, London, Nyu-York va Parijni turizm shaharlari deb aytish mumkin.

XX asrga kelib, shaharlar o'zlarini turistik diqqatga sazovor joylar sifatida bilishni boshladilar. Shahar bugungi kunda ko'plab sayyohlar uchun manzilga aylangan. Ko'pgina shaharlar dunyoning turli burchaklaridan sayyohlar eng ko'p tashrif buyuriladigan joylar bo'lish uchun raqobatlasha boshladi. Shu nuqtai nazardan ular bugun yanada rivojlangan va jozibali bo'lib bormoqda. Shaharlarning yuksalishi nafaqat mahalliy aholi, balki sayyohlar uchun ham qulayliklar yaratadi. 2030-yilga kelib shaharlarliklar Yer yuzi aholisining 61 foizni (5 mlrd) tashkil qilishi kutilmoqda. Bu nafaqat shahar rivojlanishida, balki uning iqtisodiyotida ham asosiy omil hisoblanadi. Bu borada statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, turizm shaharlar uchun imtiyozdir. Ko'pgina shaharlar yangi jihozlar va shaharni yangilash loyihalariga katta miqdorda sarmoya kiritib, ma'lum mahallalarning ko'imsiz qiyofasini o'zgartirib, ularni turistik diqqatga sazovor joylarga aylantirib, turizm kartasini o'ynamoqda [8, 36]. Biroq, bu yondashuvlar har doim ham ko'zlangan natijami beradimi? Sababi, aksariyat o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan, ochiq osmon ostidagi muzeylar bo'lgan shaharlarda bu akssado berishi ham mumkin. Ya'ni, shahar qiyofasini o'zgartirish, shaharlardagi an'anaviylikni ko'rish uchun kelayotgan, ekzotik zavq olmoqchi bo'lgan sayyohlarning oqimini kamaytirishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham shaharlar, shahar turizmining maqsadi va shakli sifatida tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlari hamda istaklarini qondirish yo'nalishida rivojlanmog'i lozim. Ma'lumki, shaharlarni sayyohlar uchun jozibador qiladigan narsa ularning tarixi, san'ati, madaniy merosi va aholisining turmush tarzini o'rganishga bo'lgan qiziqishidir. Turistlar uchun shahar qiymatini yaratish uchun uning o'ziga xosligini aniqlash muhimdir. Bu borada Florensiya, Afina, Rim kabi shaharlarning xususiyati aniq, ya'ni ularning qadimiyligni saqlab qolgan qiyofasini sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Biroq, shaharlar tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ularning tarixiylikdan tashqari yana ko'plab o'ziga xosliklari bor. Masalan, kelajak shaharlari, ekologik shahar, sanoat shaharlari va hokazo. Ularga sayyohlarni jalb qilish uchun esa, tashrif buyurishning ahamiyati, yutuqlari xususidagi targ'ibotni shakllantirish kerak. Bu borada hozirgi kunda jahon tajribasida Integratsiyalashgan shahar yangi to'lqin sifatida kabi yondashuvlar ilgari surilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, shaharlarga sayohat maqsadida tashrif buyuruvchilar sonining ortib borayotgani shahar turizmining rivojlanishidan dalolat beradi. Shaharlar sayyohlar uchun eng yaxshi shahar bo'lish uchun obyektlar va xizmatlarni rivojlantirish yo'lida raqobatlashmoqda. Chunki, shahar turizmining yangi-yangi tarmoqlarini rivojlantirish sayyohlar sonini oshirishning kalitidir. Bu esa, o'z o'rnida jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechilishiga imkon yaratadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://www.greeneuropeanjournal.eu/>
2. Ashworth, G., & Page, S. J. Urban tourism research: Recent progress and current paradoxes // *Tourism Management*, 32(1), 1-15. 2011.
3. Sofia Cherici Cities as empty shells: urban tourism in a post-pandemic world // *Green European journal*, 2021.
4. Ramwell, B. User satisfaction and product development in urban tourism // *Tourism Management*, 19(1), 35-47. 1998.
5. <https://kun.uz/02881016#!>
6. Law, C. M. (1993.) *Urban Tourism Attracting visitors to large cities*, London, Mansell accessed in Chan, T. C. (1996.) *Urban heritage tourism the global local nexus*, *Annals of tourism research*, vol. 23. no. 2., Elsevier Science Ltd, p. 286., accessed in [www.elsevier.com](http://www.elsevier.com) (31.08.2012.)
7. <http://uk.businessinsider.com>
8. Cianga N. and Popescu A. Green Spaces And Urban Tourism Development Craiova Municipality In Romania // *European Journal Of Geography Volume 4, Issue 2*, pp. 34-45. 2013.
9. Majidov, R. R., Boqiyev, F. H., Raximov, D. R., Saydaxmadov, A. V., Soliyev, I. S., & Abduqodirov, D. S. (2023). JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI DARS MASHG 'ULOTLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 28-32.
10. Boqiyev, F. (2024). MASSAJ VA GIMNASTIKA MASHQLARI ORQALI REFLEKTOR HARAKATLAR VA "HARAKAT XOTIRASI" NI TAKOMILLASHTIRISH. SPORT VA XORIJIY TILLAR INTEGRATSIYASINING AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI, 1(1), 365-369.
11. Fazliddin, B. (2024). BO 'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O 'QITUVCHILARINI TURISTIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *Research and implementation*, 2(4), 142-146.
12. Kurbonali, S., & Umarali, Y. (2023). AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PHYSICAL FITNESS OF COLLEGE STUDENTS. *Conferencea*, 188-191.
13. Мамажонов, Н., Хамракулов, Р. А., Хайдаралиев, Х., Хасанов, А., Бобожонов, Н., & Усмонов, З. КБК: 751 М23 Ташкилий кумита.